373
M-32

MAXMUDOV BAXRAMJON
ABDUSALOMOVICH

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



373.796
M-32

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAXMUDOV BAXRAMJON ABDUSALOMOVICH

-140779/22-

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

(5111700-Boshlang`ich ta'lim yo'nalishi uchun)

DARSLIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq-2023

«City of book»

UDK 373;796
KBK 74.202;75.1
M-32

B.A. Maxmudov / Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi / Darslik. - Chirchiq: «City of book», 2023. – 252 bet.

ANNOTATSIYA

Mazkur darslik Davlat ta'lim standartlari va uning o'quv dasturiga binoan 5111700-Boshlang`ich ta'lim yo'nalishi talabalari o'zlashtirishlari kerak bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bayon qilingan. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va jismoniy tarbiya fanidan amaliy mashg'ulotiga qatnashuvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Muallif:

Maxmudov B.A. CHDPU Bolalar sporti kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.

Taqrizchilar:

Xurramov E.E. CHDPU Bolalar sporti kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.

Latipov R.I. Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti.

ISBN 978-9910-9966-5-8

© B.A. Maxmudov, 2023
©«City of book», 2023

KIRISH

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunigndek, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning muhim vazifalari sirasiga kiradi.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud[2].

Ta'lim va tarbiya masalasi barcha davrlarda eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi vazifalardan biri bo'lib kelgan[1]. Chunki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yuqori malakali, etuk mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq.

Shuning uchun oliy ta'lim tizimining o'quv rejasida keltirilgan o'quv fanlaridan hisoblangan jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi, mazmuni va o'qitish usullarini takomillashtirish zarurati shu soha mutaxassislari va mutasaddilari zimmasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Zero, oliy ta'lim tizimida qayd qilinganidek, Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bu fanni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad: talabalarga maktab jismoniy tarbiyasida o`quvchilarni sog'lom turmush tarzini shakllantirish, shuningdek, ularda jismoniy tarbiya bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lolozimligi bilan belgilanadi.

Mazkur darslik oliy ta'lim tizimining boshlangich ta`lim yo`nalishida tahsil oladigan talabalar uchun mo`jallfngan bo`lib, fanining o'quv rejasi hamda fan dasturi asosida yaratilgan.

I BOB HARAKATLI O‘YINLARNI QISQACHA TARIXI, TURKUMLARI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

1.1. Harakatli o‘yinlarning rivojlanish tarixi

Harakatli o‘yinlar o‘z nomi bilan inson faoliyatini ta’minlovchi mazmunga egadir. Buni eng qadimgi ajdodlarimiz ham ongli ravishda chuqur bilishgan va amal qilishgan.

Boshda takidlanganidek, kurash, ot o‘yinlari, kamondan (yoy) nayza (o‘q) otish, nayza sanchish, kaltak, tosh va boshqa moslamalarni uloqtirib yovvoyi hayvonlarni ov qilishgan.

Ijtimoiy tuzumlar almashishi va rivojlanishi tufayli turmush sharoiti o‘zgargan va rivojlangan. Mehnat qilish, oilada bolalarni tarbiyalash, ov qilish, dushmanlarga qarshi jang qilish va boshqa juda ko‘p sabablarga ko‘ra harakatli o‘yinlar, turli jismoniy mashqlar maqsadli hamda keng qo‘llangan.

Osiyo, Yevropa qit’alarida yashagan odamlar asosan ov bilan shug‘ullanib, turli xil harakatli o‘yinlarni kashf etishgan. Bunda hayvonlarning hatti-harakati, tabiatdagi turli o‘zgarishlarga qiyos qilishgan.

Yovvoyi-yirtqich hayvonlardan saqlanish, ov qilish jarayonlarida chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik kabi jismoniy sifatlar sarf qilinishini tushungan qabila, urug‘ oqsaqollari, yoshlarni maxsus tayyorlashga kirishganlar. Bunda jismonan baquvvat, chaqqon kishilarni tarbiyachi yo‘liga o‘rgatib, ulardan bolalarni tarbiyalashda foydalanilgan.

Quldorchilik tuzumi davrida mayda hunarmandchilik va keyinchalik ishlab chiqarish rivojlangan. Natijada metall buyumlardan qilich, nayza, pichoq, bolta, o‘roq kabi jang va mehnat qurollarini yasashgan. Ulardan turli marosimlarda o‘yin sifatida foydalanganlar.

Ilk bor davlat paydo bo‘lgan Greklar, Rimliklar va ularning atrofidagi xalqlarning ijtimoiy turmush sharoitida urushlar ko‘p bo‘lganligi sababli harbiy qurollarni yasash asosiy o‘rinda turgan. Mohirona jang qilish uchun esa askarlarni

har tomonlama jismoniy jihatdan tayyorlashgan. Jang mashqlarining ba’zi qismlarini (element) o‘yinga aylantirib, xalq orasida keng tarkalgan.

Kadimgi Greklarning sparta tizimi, Italiyaning Rim tizimi va shunga o‘xshash tarbiya maskanlarida eng murakkab mashklar, jang amallari o‘rgatilib, ularni omma o‘rtasida tomosha sifatida namoyish etishgan.

Feodalizm jamiyati davrida boy feodallar va dehqonlarning yumushlari asosida turli xil yangi o‘yinlar vujudga kelgan. Ular qilichlashish, nayza uloqtirish, kamondan o‘q otish kabi turlar bilan bir qatorda mushtlashish (boks), kurash, tosh ko‘tarish, suvda suzish kabi o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishgan.

O‘rta asr va keyingi bir necha yuz yilliklar davrida yuqorida tilga olingan murakkab harakatli o‘yinlar musobaqa shakliga o‘tib, kuch va matonat sinash, jang qilish quroliga aylangan.

E’tirof etish lozimki, har bir xalqning o‘z milliy o‘yinlari va ularni tashkil qilish marosimlari mavjud bo‘lgan.

Arab mamlakatlarida asosan otda poyga, otni sakratish, chovg‘on o‘yinlari milliy o‘yinlar hisoblansa, xindistonda fillar, ilonlarni tutish, ularni o‘yinga o‘rgatish hamda chimxokkey milliy hisoblanadi. Afrika mamlakatlarida yo‘lbars va boshqa yirtqich hayvonlarni ushlash, ularni o‘rgatish, nayza, kamondan otish kabi turlar eng qadimgi davrdan buyon davom etib kelayotgan o‘yinlardir.

Xitoy, Yapon, Koreya, Tayvan kabi sharq mamlakatlarida o‘zlariga xos yakka kurashlar (ushu, taekvando, karate, kikboksing va h.k) uzoq davrlardan buyon qo‘llanilib kelinadi.

Kavkaz xalqlarida kurash, ot o‘yinlari, chexarda va boshqa o‘yinlar mashhur hisoblanadi.

Rossiya xalqlari yashash xududlariga qarab (shimol, sharq va janub) chang‘ida yurish, konkida uchish, mushtlashish (boks), kurash, muzda cho‘milish, ot, bug‘i, itlarga arava, chana qo‘shib poyga qilish kabi milliy o‘yinlar tarixi qadimgi avlodlariga borib taqaladi.

Eslatish zarurki, qadimda o‘yin sifatida foydalangan juda ko‘p turlar keyinchalik sportga aylanadi. Bularni Yevropada XIX asrning birinchi yarmida ilk bor tashkil etilgan musobaqalar misolida ko‘rish mumkin. Bu faoliyatlar xalqaro miqyosga aylanib, keyinchalik turli federatsiyalarning tuzilishiga sababchi bo‘ladi. Shu asosda Yevropa va jahon birinchiliklari hamda olimpiya o‘yinlarining tashkil etilishiga olib keladi.

Shunday bo‘lsada har bir mamlakatda o‘zlarining milliy harakatli o‘yinlari mavjud. Ulardan asosan bolalarni jismoniy tarbiyalash, bayramlarda xordiq chiqarish, ba’zan esa musobaqa tariqasida foydalaniladi.

Takidlash lozimki, sobiq ittifoq davrida harakatli o‘yinlar asosan jismoniy tarbiya darslaridagina keng qo‘llanilib kelingan. Shu sababdan maxsus to‘plamlar tayyorlanib, ularda ko‘proq Rossiya va uning atrofidagi mamlakatlarning harakatli o‘yinlari joy olgan. Shu tariqa deyarlik barcha harakatli o‘yinlar sobiq ittifoqchi respublikalarining xalqlari orasida asosiy o‘yin bo‘lib xizmat qilib kelgan. Sir emaski, O‘zbekistonda o‘qitilayotgan jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladigan harakatli o‘yinlarning 70-80% xorijiy mamlakatlarning harakatli o‘yinlaridir. Shunday bo‘lsada o‘yinlarning mazmuni, maqsad va vazifalari umumxalq ehtiyojiga mos kelishini inkor qilib bo‘lmaydi. Chunki ularning mazmunida barcha jismoniy sifatlarni tayyorlashga loyiq bo‘lgan tarbiyaviy jarayonlar mujassamlashgan.

Xulosa qilib aytganda harakatli o‘yinlar (umum ma’noda) barcha xalqlarning ezgu-niyatlari, maqsad va vazifalarini o‘zida saqlab kelmoqda. ulardan maqsadli foydalanish va milliy xususiyatlarga moslashtirish lozim bo‘ladi.

1.2. Mamlakatimizda milliy harakatli o‘yinlarni rivojlanish bosqichlari

O‘zbek xalq milliy o‘yinlarini ikki toifaga ajratish mumkin, ya’ni:

1. Murakkab harakatli o‘yinlar (kurash, ot o‘yinlari, dorboz, arqon tortishish, bilak kuchini sinash, tosh (gir) ko‘tarish va h.k).

2. Oddiy harakatli o‘yinlar (xo‘rozlar jangi, oq terakmi-ko‘k terak, chillik, orqang kuydi, to‘qqiz tosh, bo‘ron, shuvoq va h.k).

Takidlash joizki, kurash, ot o‘yinlari (poyga, sakratish, raqs), tosh (gir) ko‘tarish kabilar mustaqil sport turi bo‘lib hisoblansada, ularning qismlari (element) o‘yin sifatida foydalanib, xalq istemolida chuqur o‘rin egallamoqda.

Milliy harakatli o‘yinlar tushunchasi haqida gap ketsa, aytish mumkinki faqat mamlakatimiz xududlarida eng qadimgi davrlardan buyon qo‘llanilib kelinayotgan o‘yinlardir. Lekin ular orasida Markaziy Osiyo, Yevropa mamlakatlaridan u yoki bu sabab bilan kirib kelgan va chuqur o‘rinlashib, milliylashib ketgan harakatli o‘yinlar ham oz emas. Misol tariqasida “Mushuk bilan sichqon”, “Qarmoq”, “Qopqon”, “Bayroq uchun kurashish”, “Yelka urishtirish” (xo‘rozlar jangi) va h.k.

Yuqorida takidlanganidek, o‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlarining kelib chiqish va rivojlanish tarixi qadimgi ajdodlar va avlodlar tarixiga borib otadi.

Sobiq Sovetlar hokimiyati yillarida zahmatli mehnatlari bilan jahonda nom qozongan arxeologik olim, akademik Yahyo G‘ulomov, yaqin davrlar ichida jiddiy qidiruv ishlari bilan shug‘illangan arxeolog, tarixchi yosh olim Toshnazar Omonjo‘lov va boshqa bir qator mutaxasislarning ilmiy izlanishlari natijalaridan harakatli o‘yinlar haqida qiziqarli malumotlar olish mumkin. Ularning ko‘rsatishicha Samarqand (Afrosiyob, Omonqo‘ton, Registon atrofi), Surxandaryo (Termiz, Dalvarzin tepa, Teshik tosh), Toshkent (Sirdaryo yoqalari va uning atroflari, qurama tizma tog‘lari, Chotqol tog‘ etaklari) va boshqa viloyatlarda o‘tkazilgan qazilma topilmalarida harakatli o‘yinlarni tasvirlovchi shakllar, rasmlar ko‘p uchraydi. Shuningdek, toshlarga o‘yib chizilgan shakllar va rasmlarda ov qilish, ov qurollari, hayvonlar bilan olishish, parrandalar va hayvonlarni o‘rgatib o‘ynatish kabi holatlar qadimgi ajdodlarning harakatli o‘yinlaridan dalolat ekanligini tasdiqlashgan.

Hozirgi davrda xalq ommasi orasida juda mashhur bo‘lgan milliy o‘yinlardan kurash, ko‘pkari-uloq, poyga, dorboz, qilichbozlik, nayza uloqtirish, yuklarni ko‘tarish kabilar eng qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan harakatli (murakkab) o‘yinlardir. Ularning kelib chiqish va taraqqiy qilish jarayonlari haqida rasmiy manba’lar juda ko‘p desa bo‘ladi.